

“JINOYAT VA JAZO” – AXLOQIY TANLOV VA INSON
RUHIYATI TAHLILI

To'rayeva Muattar

Xushvaqtova Maftuna

TerDU talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” va Albert Kamyuning “Begona” asarlarning qiyosiy tahlili misolida insoniyatning murakkab ijtimoiy, axloqiy va psixologik muammolarini qiyoslash orqali ruhiy masalalarning turli qirralarini yoritish ko'rsatilgan.

Kalit soʻzlar: F.M.Dostoyevskiy, “Jinoyat va jazo” “Begona” axloqiy konflikt, psixologik tahlil, jamiyat va shaxs munosabatlari, ichki kurash, qiyosiy tahlil

F.M.Dostoyevskiy ijodida jinoyat va jazo motivi bilan yondosh holda davlat ish tizimining yaroqsizligi, amaldagi yetakchi rahbarlarning adolatsizligi, sud huquq sohasidagi qora manfaat, pora illati bilan bulgʻanganligi, xalqning qashshoqligi, jinoyatlar magʻzida yetar-yetishmovchilik fojiasi turishi kabi dolzarb ijtimoiy muammolar talqinining ustuvorligini asoslangandir. Fyodor Dostoyevskiy va boshqa jahon adiblarining asarlari misolida inson ongostidagi jamiyat, muhit va shaxs psixologiyasi bilan bogʻliq muammolarni jinoyat va jazo motivi misolida toʻlaqonli oʻrganish bilan belgilandi.

Inson uchun «eng oliy jazo» haqida «Jinoyat va jazo» haqida gapirasak. Inson qilgan jinoyati uchun jazo olmay qolmaydi. Har qanday jinoyatning jazosi bor. Jazoning qay shaklda berilishi esa jinoyat koʻlamiga koʻra belgilanadi. Koʻpchilik jazolarning eng ogʻiri vijdon azobi ekaniga iqror boʻladi. Qamoq jazosini oʻtab yoki belgilangan jarimani toʻlab qutulish, hattoki oʻlim jazosi orqali ham birdaniga muammolardan soqit boʻlish mumkin. Ammo odam qanday qilib oʻzidan, oʻzidagi vijdon azobidan qochib qutulolardi?!

Raskolnikov odamlarni ikki toifaga bo'lardi: favquloddagi kishilar va oddiy odamlar. Uning uchun favquloddagi kishilar Napoleon, Iskandar Makedonskiy singari shaxslar bo'lib, yigit bundaylar oliy maqsadlari yo'lida qon to'kkan, insonlarni qurbon qilgan, demak, har qanday muhim va tarixiy maqsad yo'lida kimlardir qurbon bo'lishini tabiiy deb hisoblar. Raskolnikov kampirni o'ldirganiga zarracha achinmasdi, bir xasharotni o'ldirdim deb hisoblardi. Qurbonini shundoq ham azoblanib, yo'qchilikdan tinkasi qurib borayotgan kambag'allarning qonini so'rib yurgan zararkunanda sanardi.

Asar nomidagi jazo bu rasmiy jazo emas. Mutlaqo! U hissiy jazo. Raskolnikovning timsolidagi u kabi boshqa insonlarning o'z-o'ziga beruvchi jazosidir. Yigitning jinoyati uning butun ruhiyatini ag'dar-to'ntar qilib yubordi. Hayotini izdan chiqardi. O'zini va o'zidan chiqib butun dunyoni taftish qilishga undadi. Dostoyevskiy ushbu romani orqali qahramonlar psixologiyasini avra-astarigacha kitobxonlarga ko'rsatib berolgan. O'quvchi mutolaa davomida har bir qahramon bilan tengma-teng fikrlaydi, tillashadi va azoblanadi. O'zini o'ta nochor, yupun va ezgin his qiladi. Ammo qizig'i, asar so'ngida intihoga emas, ibtidoaga duch kelinadi. Garchi Raskolnikov 8 yilga katorgaga surgun qilingan bo'lsa-da, uning yorqin hayoti o'sha yerda boshlanayotgandi. Ma'nan tirilishi ham, qalbiga orzu-umidlari qaytib kelishi ham o'sha yerda sodir bo'ladi. Qon to'kish, kimningdir hayotiga zomin bo'lish baribir yaxshilikka olib bormaydi. Har qanday jinoyatning jazosi beriladi. Undan qochishning iloji yo'q. Eng muhimi, qalbda hamisha mehr-muhabbat, atrofdagilarga adolat kabi iliq tuyg'ularni saqlab qolishimiz lozim. Bunday tuyg'ularsiz inson shafqatsizlashib boradi. Natijada esa «favquloddagi shaxs»ga aylanadi...

Fyodor Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" va Albert Kamyuning "Begona" asarlari bir-biridan farqli bo'lsa-da, ularning o'xshash jihatlari mavjud. Ikkala asarda ham qahramonlar jinoyat sodir etadi: Rodion Raskolnikov (Jinoyat va jazo) fojeali sabablar tufayli qotillik qiladi, Merso (Begona) esa beg'amlik va hissiyotsizlik sabab qotillikka qo'l uradi. Har ikki qahramon ham o'z jinoyatlarini

amalga oshirish jarayonida jamiyat va shaxsiy qadriyatlar orasidagi ziddiyatlarni boshdan kechiradi.

Asarlardagi psixologik o'zgarish haqida aytadigan bo'lsak Raskolnikov o'z jinoyatidan keyin ichki iztiroblar va vijdon azobini boshdan kechiradi. U o'z harakatini asoslashga harakat qiladi, lekin oxir-oqibat pushaymon bo'ladi. Merso esa hissiyotlarga e'tibor bermay yashaydi, lekin qamoqda yotganida hayot va o'lim haqida falsafiy o'ylarga berilib, o'zining yashash ma'nosini anglab yetadi.

Har ikkala qahramonlar jamiyatdan o'zini ayro his qilishi borasida ular bir biria o'xshash hisoblanadi. Raskolnikov o'zini "alohida inson" deb biladi va boshqalar bilan muloqotda qiyinchilikka duch keladi. Merso esa jamiyat me'yorlariga qarama-qarshi turgani va begonaligi sababli yakkalanadi. Qahramonlar jamiyat tomonidan sud qilinadi — faqat jinoyat uchun emas, balki ularning g'ayrioddiy xatti-harakatlari va fikrlari uchun ham.

Asarning falsafiyligi borasida Dostoyevskiyning asari xristianlik axloqiyati va inson ruhining najot topishi bilan bog'liq. Raskolnikovning vijdon azobi va so'nggi pushaymonligi axloqiy tiklanishning namunasi hisoblanadi. Kamyuning asari absurdizm falsafasi asosida yozilgan desak xato bo'lmaydi. Merso hayotning mazmunsizligini qabul qiladi va o'z hayotiy tanlovlariga tinchlik bilan yuz tutadi.

Hayot va o'lim muammosi yuzasidan asarlar orasida katta farq yuzaga keladi "Jinoyat va jazo"da Raskolnikov o'z jinoyati va jazosi o'rtasidagi ma'noni izlaydi, va bu uni ruhiy o'limdan qayta tug'ilishga olib keladi. U qilgan jiyoyati sababli ruhiyatini o'zligini tiriltiradi.

"Begona"da Merso o'limni hayotning qismati sifatida qabul qiladi va so'nggi daqiqalarda hayotning absurdligini anglaydi.

Har ikki asar haqida umumiy xulosa beraadigan bo'lsak Ikkala asar ham inson ruhiyati va tanlovining murakkabligini o'rganadi. "Jinoyat va jazo" dinga va axloqiy qadriyatlarga ko'proq urg'u bersa, "Begona" absurdizm va hayotning mazmunsizligiga e'tibor qaratadi. Shu sababli, ular turli falsafiy

oqimlarga mansub bo'lsa-da, inson ruhiyatining ziddiyatlari va jamiyat bilan bog'liq muammolarni tadqiq qiladi va o'quvchiga qattiq ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qozoqboy Yo'ldoshevning Badiiy tahlil asoslari.T.
3. Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy.Jinoyat va jazo. M. 1966
3. Gibian, G. (1955). Traditional Symbolism in Crime and Punishment.
4. Alekseev P. V. Rus Sharq sayohatnomasi 18-asr oxiri va 19-asrning birinchi uchdan bir qismi sayohat nasri sifatida . 2014

www.ziyouz.com

www.gigafox.ru